

**YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMIDAG AMALGA
OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOHADAGI O‘ZGARISHLAR**

Lola Yakubova Mavlonovna,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

magistranti, Qarshi

E-mail: qarshilola@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizmini isloh qilinishi, sohada qabul qilingan normative-huquqiy asoslar, muammo va natijalar hamda talaba-yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar ilmiy-tarixiy tahlil etilgan hamda kerakli taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: universitet, ta’lim, qonun, qaror, reyting, kasb, talaba-yoshlar, bitiruvchi, islohot, malaka, ko‘nikma, magistr.

**REFORMS IN THE NEW UZBEKISTAN HIGHER EDUCATION SYSTEM
AND CHANGES IN THE FIELD**

Lola Yakubova Mavlonovna,

Master of University of Economics and

Pedagogy, Karshi

E-mail: qarshilola@gmail.com

ABSTRACT: In this article, the reform of the higher education system in New Uzbekistan, the normative and legal frameworks adopted in the field, the problems and results, and the reforms being carried out in support of students and youth are analyzed scientifically and historically, and the necessary suggestions and recommendations are made. given

Keywords: university, education, law, decision, rating, profession, student, graduate, reform, qualification, skill, master.

**РЕФОРМЫ В НОВОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА И ИЗМЕНЕНИЯ В ОБЛАСТИ**

Лола Якубова Мавлоновна,

Университет экономики и педагогики

аспирант, Карши

Электронная почта: qarshilola@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В данной статье научно и исторически анализируются реформа системы высшего образования в Новом Узбекистане, нормативно-правовая база, принятая в сфере, проблемы и результаты, а также проводимые реформы в сфере поддержки студентов и молодежи. и сделаны необходимые предложения и рекомендации.

Ключевые слова: вуз, образование, право, решение, рейтинг, профессия, студент, выпускник, реформа, квалификация, мастерство, магистр.

Kirish Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko'lamli amalga oshirilmoqda. Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarining dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxtsaodati yo'lida sidqi dildan mehnat qilishga taayyorlaydi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimining buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi. Hozirgi zamon oliy ta'lim tizimi tubdan yangilanmoqda, xususan Yangi O'zbekistonda universitetlar isloh qilinishida talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, sohada olib borilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga egadir [1; 91-b].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Mutaffakir olim Abu Nasr Farobiyning fikricha "Ta'lim - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Farobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l - ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb - hunar, xulq odob fazilatlarini

birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi. Farobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy - axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

O'zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo'lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida. Shunday ekan yoshlarning ongini, ma'naviyatini, salohiyatini, madaniyatini, bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo'yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilga mo'ljallangan konsepsiya va ta'lim to'g'risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o'ylab, davlatimiz rivojini o'ylab amalga oshirilayotgani bejiz emas. Yurtimizda bugungi kunda eng dolzarb muammo va yechimlarni qamrab olgan 30-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyaning qabul qilinishi va amalga oshirilishi yurtimizda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar amalga oshishiga olib keladi.

Ta'lim sifati O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Kontsepsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasida : Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari, Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy - tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, yuqori

malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy - texnik ta'minotini mustahkamlash, oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash, konseptsyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar xususida keng qamrovli masalalar qamrab olingan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan OTM lar sonini ochiqsladi. Qayd etilishicha, bugungi kunda O'zbekistonda 159 ta jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud. Shundan universitet 28 ta, institutlar 47 ta, akademiya 3 ta, konservatoriya 1 ta, filial 26 ta, xorijiy OTM va uning filiallari 30 ta, nodavlat OTM 24 ta. Bundan ko'rinib turibdiki bugungi kunda ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar sezilarli darajada o'sgan. Davlat oliy ta'lim muassasalari tegishliligi bo'yicha vazirlik va idoralar tasarrufiga birlashtirilgan: Xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari soni so'nggi 3 yilda ikki barobar oshgan. 2020-2021- o'quv yili boshida respublika bo'yicha 20 ta xorijiy oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan. Bu ma'lumotlar esa ta'lim tizimimiz uzviyligi to'g'ri yo'lga qo'yilganini ko'rsatib turibdi.

Davlat oliy ta'lim muassasalari tegishliligi bo'yicha vazirlik va idoralar tasarrufiga birlashtirilishi- oliy ta'limda kadrlar sifatini oshirish, har bir yo'nalish bo'yicha yetuk mutaxassislarning tayyorlanishi nazarda tutilgan. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining so'ngi 3 yilda 2 barobar o'sishi ham buning isbotidir. Bu oliy dargohlarning ko'lami yildan-yilga o'sib borayotgani va mamlakatimizning rivojiga hissa qo'shadigan turli yo'nalishlarda kadrlar tayyorlayotgani bugun hech kimga sir emas. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019-2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasasida sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muassasasida kechki ta'lim shakli joriy etildi. Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi bo'yicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, so'nggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi. Talabalarining 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 4,5 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olmoqdalar. Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy

ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish bilim sohalariga oid ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olmoqdalar. 2019-2020 o'quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi.

Respublikaning 16 ta oliy ta'lim muassasasida 2018-2019 o'quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo'lga qo'yildi. So'nggi 3 yilda oliy ta'lim muassasalarining 1611 nafar professor-o'qituvchisi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashi va malaka oshirishi ta'minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta'lim olishga qabul qilindi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 46 nafar professor-o'qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o'tashi ta'minlandi. 2017-2019 yillarda ta'lim jarayoniga 1154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar). Oliy ta'lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016 yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirildi. 4 Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko'rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun o'qitishni yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim sifatini ta'minlash va modernizasiyalashtirishda avvalombor, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni shakllantirish masalasi paydo bo'ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta'lim oldiga qo'yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish dolzarb masala bo'lib turibdi. Ta'lim sifati va ta'lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta'limga qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ta'lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta'lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta'lim globallashtirish jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashtirish va postindustrial axborot jamiyatiga o'tishidagi asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta'lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o'tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta'lim tizimlarining shakllanishi

tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.[3] Ta'lim sifati an'anaga ko'ra o'qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo'lagi bo'lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim sifatini oshirish butun dunyoda ta'lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta'lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tug'iladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim sifatini ta'minlash turli oqibatlarga va xususiyatlarga ega bo'ladi. Oliy ta'lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta'lim sifatini ta'minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg'or tajribalarga tayanadilar. Ta'lim sifatini ta'minlash "jangovar harakat qoidalari" deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan aniq oqibatlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta'lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi "yozilmagan qoidalar" ham mavjuddir.

Xulosa qiladigan bo'lsak, oliy ta'lim sifatini ta'minlash borasida shu paytgacha mavjud bo'lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda o'tkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo'lib, bu ko'pincha oliy ta'lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha shu paytgacha to'plangan xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimi yutuqlari bilan o'zaro uyg'unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishi shakshubhasizdir. Aqliy rivojlanishning barcha sohalarida shaxs ijtimoiy munosabatlar o'zgaradi. Bu jarayonda o'quv faoliyatining yetakchi roli kichik maktab yoshidagi o'quvchining boshqa tadbirlarga faol qo'shilishini istisno etmaydi, uning davomida bolaning yangi yutuqlari yaxshilanadi va mustahkamlanadi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha boshlang'ich maktab yoshining o'ziga xos xususiyati shundaki, faoliyatning maqsadlari asosan bolalar uchun kattalar tomonidan belgilab beriladi. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Bu islohotlar bugun allaqachon natijasini ham ko'rsatyapti. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ta'lim tizimimizdagi ijobiy natijalar ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada keng ko'lamda davom etayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонова, З. Ю. (2020). ОСНОВНЫЕ ТРУДНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА ДЛЯ НАУЧНО ТЕХНИЧЕСКОГО ТЕКСТА. In *Общественные и гуманитарные науки* (pp. 296-297).

2. ABDURAKHMONOVA, Z. THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS. ЭКОНОМИКА, 12-16.
3. Abdurakhmonova, Z. Y. MODERN UZBEKISTAN AND ITS TOURISM POTENTIAL.
4. Юлдашева, Д. М., & Абдурахмонова, З. Ю. СПЕЦИФИКА ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ НА РУССКИЙ ЯЗЫК ФРАНЦУЗСКИХ ТЕРМИНОВ. ББК 80я43,
5. <https://www.unicef.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob
7. MAMATQULOV, B. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *Acta NUUz*, 1(1.2. 1).
8. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
9. Mamatkulov, B. (2021). Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 507-510.
10. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 158-161).